V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ABDULLAEV OBIDJON XAYRULLAEVICH

KASR VA BUTUN TARTIBLI INTEGRAL-DIFFERENSIAL OPERATORLI ARALASH TIPDAGI YUKLANGAN TENGLAMALAR UCHUN LOKAL VA NOLOKAL MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

UDK: 517.95

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Abdullayev Obidjon Xayrullayevich
Kasr va butun tartibli integral-differensial operatorli aralash tipdagi yuklangan tenglamalar uchun lokal va nolokal masalalar …... 3

Абдуллаев Обиджон Хайруллаевич
Локальные и нелокальные задачи для нагруженных уравнений смешанного типа с интегро-дифференциальными операторами целого и дробного порядка …………………………...…….. 29

Abdullaev Obidjon Khayrullaevich
Local and non-local problems for the mixed type loaded equations with integral-differential operator’s integer and fractional order …….…………….. 55

E’lon qilingan ishlar r o’yxati
Список опубликованных работ
List of published works ………………………………....................……... 59

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ABDULLAEV OBIDJON XAYRULLAEVICH

KASR VA BUTUN TARTIBLI INTEGRAL-DIFFERENSIAL OPERATORLI ARALASH TIPDAGI YUKLANGAN TENGLAMALAR UCHUN LOKAL VA NOLOKAL MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/FM199 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Islomov Bozor** Fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Durdiev Durdimurod Qalandarovich** Fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Fayazov Kudratilla Sadriddinovich Fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Karimov Erkinjon To‘lqinovich Fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Rossiya fanlar akademiyasi Kabirdin-Balkar ilmiy markazi Tadbiqiy matematika va avtomatlashtirish instituti**

Dissertatsiya ximoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti xuzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 10-sentyabr soat 16:00 dagi majlisda bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kuchasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutining Axborot-resur markazida tanishish mumkin (188- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kuchasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 2-avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil 2-avgustdagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

O‘. A. Roziqov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J. K. Adashev
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Insoniyat yashash tarzining intensiv o‘zgarishi, fanning deyarli barcha soxalarida olib borilayotgan tadqiqotlarning yanada jadallashishiga va kengayishiga olib keldi. Jahon miqyosida olib borilayotgan, amaliy xarakterga ega bo‘lgan deyarli barcha ilmiy-amaliy tadqiqotlar matematikaning turli sohalariga, xususan, aralash tipdagi xususiy xosilali differensial tenglamalar nazariyasi masalalarini yechishga keltiriladi. Matematik biologiya, matematik fizika, nolokal jarayonlarni va hodisalarni matematik modellashtirish hamda elastik qobiqlar nazariyasi masalalarini tadqiq qilish usullarida turli xil yuklangan differensial tenglamalar qo‘llaniladi. Bundan tashqari, yuklangan tenglamalar oddiy va xususiy xosilali differensial tenglamalar uchun lokal va nolokal masalalarni yechishning bir usuli sifatida ham ishlatiladi. Buning asosi sifatida, yuklangan differensial tenglamalar va siljishli chegaraviy masalalar orasida o‘rnatilgan uzviy bog‘liqlikni keltirish mumkin. Shuning asnosida yuklangan differensial tenglamalar nazariyasi so‘ngi o‘n yillikda rivojlanishning eng yuqori darajasiga chiqdi, shunga qaramasdan, bu nazariyani butun va kasr tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun yanada rivojlantirish muxim ahamiyat kasb ketib kelmoqda. Ayniqsa, chiziqli yoki chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalarni tadqiq qilishda mavjud klassik nazariya elementlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tadbiq qilib bo‘lmasligi, tenglamalardagi yuklamalar butun va kasr tartibli turli integral-differensial operatorlar orqali berilishi, tenglamalar uchun uzluksiz ulash shartli lokal masalalarni o‘z ichiga oluvchi integral ulash shartli nolokal to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq qilish muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kunda kasr tartibli differensial, integral va integral-differensial tenglamalarni o‘rganish, bunday tenglamalar uchun tadbiqiy xarakteri va dolzarblik nuqtai nazaridan kelib chiqib turli lokal va nolokal, to‘g‘ri va teskari masalalarni qo‘yish va ularni tadqiq qilish jaxon miqyosida intensiv rivojlanib borayotganligi sababli, kasr tartibli integral-differensial operatorlar qatnashgan aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq qilish muhim axamiyatga ekanligini kursatadi. Xususan, chiziqli va chiziqsiz yuklamagan ega bo‘lgan kasr tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun umumlashgan (uzluksiz ulash shartli lokal masalalarni o‘z ichiga oluvchi) to‘g‘ri va teskari masalalarni qo‘yish, ularni tadqiq va taxlil qilish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematik fizika, matematik biologiya, uzluksiz muhit va fraktallar fizikasi dinamikasi yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, oxirgi yillarda kasr va butun tartibli aralash tipdagi tenglamalar yo‘nalishida salmoqli natijalarga erishildi. «Differensial tenglamalar va matematik fizika, integral tenglamalar va dinamik sistemalar nazariyasi» fanlarining ustivor yo‘nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Qarorning ijrosini ta’minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni[1], 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2].

Kasr tartibli differensial, integral va integral-differensial operator qatnashgan tenglamalarni tadqiq qilish bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Ghent University (Belgiya), University of Santiago de Compastela (Ispaniya), University of Las Plamas de Gran Canaria (Ispaniya), Tadbiqiy matematika va avtomatlashtirish instituti (Rossiya), Qozog‘iston Respublikasi Milliy akademiyasi nazariy va tadbiqiy matematika instituti (Qozog‘iston), Anand International College of Engeineering (Hindiston), La Rochelle University (Fransiya), Cankaya University (Turkiya), Abay Qozoq Milliy pedagogika universiteti (Qozog‘iston), Boshqirdiston davlat universiteti, Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Belorus davlat universiteti, Voronej davlat universiteti, Kabardin-Balqor davlat universiteti, Qozon (Volga bo‘yi) federal universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Matematika instituti, Novosibirsk davlat universiteti, Sibir federal universiteti, Samara davlat texnika universiteti, Samara davlat ijtimoiy va gumanitar fanlar akademiyasi, Rossiya FA Sibir bo‘limining Hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti, va boshqa xorijiy ilmiy muassasalarda keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oxirgi yillarda butun va kasr tartibli differensial, integral-differensial operatorli klassik va aralash tipdagi tenglamalar uchun fundamental va amaliy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-son qarori.

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: www.inderscience.com.jhome; www.springer.com.journal; www.link.springer.com/journal/10625 va boshqa shunga o‘xshash manbalar asosida ishlab chiqilgan.

xarakterga ega bo‘lgan turli chegaraviy masalalarni yechish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator dolzarb natijalar olingan.

Jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: xarakteristik va noxarakteristik tip o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan aralash parabolik-giperbolik tipdagi yuklangan tenglamalarning modellari tadqiq qilingan, aralash tipdagi tenglama modeli sifatida turli chegaraviy masalalalar tadqiq qilingan va ularning yechimlari yaqqol ko‘rishda yozilgan (Rossiya FA Kabardin-Balqor ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti); aralash parabolik-giperbolik yuklangan tenglama uchun to‘g‘ri to‘rtburchak sohada chagaraviy va boshlang‘ich-chegaraviy masalalar yechimi yagonaligining zaruriy va yetarlilik shartlari topilgan (Boshqirdiston Respublikasi amaliy tadqiqotlar instituti), yuklangan elliptik-giperbolik tipdagi tenglama uchun lokal va nolokal masalalar yechimining yagonalik kretiriysi spektral analiz usullaridan foydalanib isbotlangan. Yechim mavjudligi esa biortogonal qatorlar yordamida ko‘rsatilgan (Samara davlat ijtimoiy va gumanitar fanlar akademiyasi), kasr tartibli integral-differensial operatorli yuklamaga ega klassik tipdagi tenglamalar uchun masalalar yechimlarining yagonaligi va mavjudligi isbotlangan (Qozog‘iston Respublikasi Milliy akademiyasi nazariy va tadbiqiy matematika instituti); kasr tartibli Riman-Liuvill va Kaputo hosilali diffuziya va to‘lqin tenglamalari uchun lokal va nolokal masalalarning yechimlari Grin funksiyalari orqali topilgan, echim yagonaligi mavjudligining zarur va etarli shartlari olingan (Rossiya FA Kabardin-Balqor ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti); chiziqli yuklamaga ega bulgan aralash tipdagi tenglamalar uchun noma’lum o‘ng tomonni (o‘ng tomon vaqtning funksiya bo‘lgan holda xam) topishga oid teskari masalalar yechimi mavjudligi va yagonligi isbotlangan (Boshqirdiston davlat universiteti Sterlitamak filiali), chiziqsiz yuklangan tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning bir qiymatli yechilishi o‘rganilgan (S.L.Sobolev nomidagi matematiki instituti RFA).

So‘ngi yillarda jahon miqyosida chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni tadqiq qilish va ular uchun tadbiqiy va fundamental xarakterga ega bo‘lgan chegaraviy masalalarni qo‘yish va ularni o‘rganish bo‘yicha bir qator izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, turli ko‘rinishdagi yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalar uchun uzluksiz va integral ulash shartli lokal va nolokal masalalarni tadqiq qilish; qo‘yilgan chegaraviy masalalarning yechimlarini oshkor ko‘rinishlarda topish; chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan kasr tartibli xususiy xosilali tenglamalarni tadqiq etish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aralash tipdagi sodda tenglamalar o‘rganishni birinchi bo‘lib F.Trikomi boshlagan. Keyinchalik, M.CH.Chibrario, E.Xolmgren, S.Gellerstedt tomonidan buziladigan aralash tipdagi tenglamalar uchun ilk chegaraviy masalalarni tadqiq qilishgan. 1960 yilda A.V.Bitsadze tomonidan birinchi bo‘lib, aralash tipdagi ikki o‘zgaruvchili tenglama uchun korrekt qo‘yilgan masala tushunchasini ilgari surilgan. Shu tushunchani amalga oshirish niyatida, 1969 yilda A.M. Naxushev[3] tomonidan yangi turdagi masalalarni tadqiq qilingan. Bu masalalar keyinchalik siljishli chegaraviy masalalar deb nomlandi. Yuklangan xususiy hosilala differensial va integral-differensial tenglamalarni ilk bor 1976 yilda A.M.Naxushev[4] o‘rgangan hamda ularning to‘liq klassifikatsiyasini keltirgan va turli jarayonlarga tadbiqlarini aytib o‘tgan. SHundan so‘ng, bu ilmiy yo‘nalish V.A.Djenaliev, A.I. Kojanov, K.B.Sabitov, R.R.Ashurov, A.B. Xasanov, B.I.Islomov, O.S.Zikirov, S.Djamalov, A.X. Attaev, D.Kuryazov, U.Baltaeva, K.Xubiev va boshqalar tomonidan rivojlantirildi.

Aralash tipdagi tenglamalarning asosiy qismi uchun o‘rganiladigan siljishli chegaraviy masalalarda kasr tartibli integral, differensial va integral-differensial operatorlar va ularning xossalari muhim o‘rin tutadi. Shuni takidlab o‘tish joizki, fraktal ob’ektlarda fizika-biologik jarayonlarning nolokal matematik modellari asosida kasr tartibli yuklangan differensial tenglamalar yotadi. O‘z navbatida, xususiy xosilali differensial tenglamalar uchun siljishli masalalar, butun yoki kasr tartibli integral-differensial operatorli yuklamaga ega bo‘lgan differensial tenglamalarga keltiriladi. Yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalarni tadqiq qilish jarayonida, klassik nazariyadagi mavjud ekstremum prinsiplari va mavjudlik teoremalari va usullarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi.

Yuklangan tenglamalar uchun qaralayotgan masalalar yechimini yagonaligini isbotlash muxim hisoblanadi. Shu sababli, B. Islomov, U.Baltaevaning ishlarida qaralayotgan masalalarning barchasi Volterra tipidagi integral tenglamaga keltiriladi, bunday tenglamalar uchun yagonalik teoremasini alohida isbotlash talab etilmaydi. Qaralayotgan tenglama yechimining izi (ya’ni$u(x,0)$) biror butun yoki kasr tartibli integral, differensial yoki integral-differensial operatorlar bilan kelgan holatlarda, qo‘yilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligini isbotlash jarayonida, har bir operatorning ko‘rinishi va ulash shartlarini e’tiborga olish talab etiladi. Ushbu dissertatsiyada butun va kasr tartibli integral hamda integral-differensial operatorlar ko‘rinishidagi chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalar uchun integral ulash shartli to‘g‘ri va teskari masalalar tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I.Romanovskiy nomli Matematika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi FA-F1-F002 raqamli «Tipi buziluvchi tenglamalar va aralash tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarning echilishi va spektral xossalari va ular bilan bog‘liq maxsus funksiyalarni tadqiq qilish», F4-FA-F010 raqamli «Xususiy hosilali va singulyar maxsusligi bo‘lgan differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va erkin chegarali chiziqli bo‘lmagan masalalar» va OT-F4-88 raqamli «Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun

---

[3] А. М. Нахушев, Новая краевая задача для одного вырождающегося гиперболического уравнения.// *Докл. АН СССР*, **187**:4 (1969), 736–739

[4] Нахушев А.М. О задаче Дарбу для одного вырождающегося нагруженного интегро дифференциального уравнения второго порядка // Дифференц. уравнения. - 1976. - Т. 12. - № 1. - С. 103 - 108

to‘g‘ri va teskari masalalarning tatbiqlari» mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi butun va kasr tartibli operatorlar qatnashgan aralash tipdagi yuklangan tenglama uchun lokal va nolokal masalalarning yechimga egaligini tadqiq qilish metodlarini ishlab chiqish va mavjud metodlarini umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kasr tartibli differensial, integral va integral-differensial operator ko‘rinishdagi yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglamalar uchun uzluksiz va integral ulash shartli lokal hamda nolokal masalalarning yechimi mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun lokal va nolokal shartli Gellersted masalasiga o‘xshash masalalarni qo‘yish, integral ulash va nolokal shartlarda qatnashayotgan koeffitsientlaring mumkin bo‘lgan barcha hollarini tahlil qilish;

chiziqsiz yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun integral ulash shartli to‘gri masalalarni qo‘yish va qo‘yilgan masalalarning bir qiymatli yechilishini taminlaydigan sinfni aniqlash;

chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy shartli teskari masala yechimini yagonaligi va mavjudligini isbotlash.

umumiy ko‘rinishdagi yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglamalar uchun chiziqsiz ulash shartli teskari masalalarning bir qiymatli yechilishini isbolash usulini ishlab chiqish.

buziladigan aralash tipdagi yuklangan tenglama uchun korrekt masalalar qo‘yish va berilgan funsiyalar uchun masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligini ta’minlaydigan yetarlilik shartlarini aniqlash;

chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan uchinchi tartibli parabolik-giperbolik tenglama uchun qo‘yilgan lokal va nolokal masalalar yechimining yagonaligi va mavjudligini isbotlash.

Tadqiqotning ob’ekti. Butun va kasr tartibli operatorlar qatnashgan chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Kasr tartibli differensial va integral operatorlar, matematik fizika tenglamalari nazariyasi, chiziqsiz integral tenglamalar nazariyasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik tahlil, oddiy va xususiy hosilali differensial tenglamalar usullari, maxsus funksiyalar nazariyasi, energiya integrali usuli, integral tenglamalar usuli va qisqartirib asklantirish prinsipi qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasr tartibli integral, differensial yoki integral-differensial operatorlar ko‘rinishidagi yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglama uchun qo‘yilgan masalalarning yechimi yagonaligi energiya integrali orqali va mavjudligi esa integral tenglamalar usuli orqali isbotlangan;

yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun lokal va nolokal shartli Gellersted masalasiga o‘xshash masalalar qo‘yilgan va ularning bir qiymatli yechilishi Fredgolm va Volterra integral tenglamalar nazariyasiga asoslanib ko‘rsatilgan;

chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglama uchun integral ulash shartli to‘g‘ri va teskari masalalar yechimi yagonaligi va mavjudligini ta’minlaydigan funksiyalar sinfi aniqlangan.

buziladigan aralash tipdagi yuklangan tenglamalar uchun korrekt masalalar qo‘yilgan hamda gipergeometrik funksiya va Rimann-Liuvill operatorlar xossalaridan foydalanib, masalalar yechimining yagonaligi va mavjudligi isbotlangan;

chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan uchinchi tartibli parabolik-giperbolik tenglama uchun lokal va nolokal masalalarning bir qiymatli yechilishi Volterra integral tenglamalar nazariyasiga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi kasr va butun tartibli integral-differensial operatorli aralash tipdagi yuklangan tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni tadqiq qilish, tenglamada qatnashayotgan yuklangan hadning chiziqli yoki chiziqsiz ekanligini hisobga olib, qo‘yilgan masalani yechishning usulini taklif etilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yuklamaga ega bo‘lgan aralash tipdagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning echimlarini oshkor ko‘rinishlarda topishda va integral tenglamalar nazariyasi va qisqartirib akslantirish prinsipini tadbiq etishda matematik tahlil, matematik fizika va maxsus funksiyalar nazariyasi usullaridan qat’iy foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda olingan natijalardan chiziqli va chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan kasr tartibli aralash tipdagi tenglamalar nazariyasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni kasr va butun tartibli yuklangan xususiy xosilali differensial tenglamalar bilan tavsiflanadigan amaliy masalalarga hamda chiziqsiz yuklangan aralash tipdagi tenglamalarga tatbiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuklangan aralash tipdagi va kasr tartibli parabolik-giperbolik tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

yuklangan tenglamalar uchun chegaraiy masalalarni tadqiq qilishda olingan natijalardan va ishlab chiqilgan usullardan 0213-2014-0002 raqamli «Ekstremal protsesslar matematik modellarining aralash tipdagi differensial tenglamalari uchun nolokal masalalar» va AAAA-A19-119013190078-8 raqamli «Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va ularning dinamik sistemalarni modellashtirish va boshqaruv masalalariga tadbiqlari» mavzularidagi xorijiy loyihalarida aralash tipdagi tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalarning bir qiymatli echilishida foydalanilgan (Kabardin-Balqor ilmiy markazi qoshidagi Amaliy matematika va avtomatizatsiyalash institutining 2022 yil 16 sentyabdagi 54-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimini yagonaligini isbotlash imkonini bergan;

chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglama uchun integral ulash shartli to‘g‘ri va teskari masalalar yechilish usulidan 0119U102369 raqamli «Ekstremal masalalarni va xususiy hosilali tenglamalarni tadqiq qilishning geometrik va analitik usullari» mavzusidagi xorijiy loyihasida xususiy xosilali differensial tenglamalarni analitik yechishda foydalanilgan (Ukraina milliy fanlar akademiyasi Matematika institutining 2022 yil 20 sentyabrdagi 49/160-02-7 sonli ma’lumotnomasi, Ukraina). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi ekstremal masalalar orqali hosil bo‘lgan integral tenglamalarni bir qiymatli yechish imkonini bergan;

chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalardan hosil qilingan chiziqsiz integral tenglamalarni yechish usullaridan «Kasr tartibli analiz va integral tenglamalar» nomli ilmiy guruhi tomonidan kasr-tartibli integro-differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishda (Las Palmas de Gran Kanariya universitetining 2022 yil 13 sentyabrdagi ma’lumotnomasi, Ispaniya). Ilmiy natijaning qo‘llanishi kasr tartibli turli sinfdagi differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarini tadqiq qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 36 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta ilmiy maqola, jumladan, 14 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 182 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dastlabki bobi **“Kasr tartibli integral-differensial operatorlar qatnashgan yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun lokal va nolokal masalalar”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafida

$$
0=\begin{cases} u_{xx}-{}_C D_{0y}^{\alpha}u+p(x,y)\int\limits_x^1 (t-x)^{\beta-1}u(t,0)dt, & y>0 \\ u_{xx}-u_{yy}+q(x+y)\int\limits_{x+y}^1 (t-x-y)^{\gamma-1}u(t,0)dt, & y<0 \end{cases} \tag{1}
$$

tenglama uchun lokal va nolokal masala tadqiq qilingan, bu yerda $0<\alpha,\beta,\gamma<1$ va $p(x,y)$, $q(x+y)$ - berilgan funksiyalar,

$$
{}_C D_{0y}^{\alpha} f=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\int\limits_0^y (y-t)^{-\alpha} f'(t)dt, \tag{2}
$$

esa Kaputo ma’nosidagi α tartibli hosila.

Ω-orqali $y>0$ da $A_1A_2=\{(x,y):x=1,\, 0<y<h\}$, $B_1B_2=\{(x,y):x=0,\, 0<y<h\}$, $B_2A_2=\{(x,y):y=h,\ 0<x<1\}$ kesmalar bilan va $y<0$ da esa (1) tenglamaning $A_1C: x-y=1$, $B_1C: x+y=0$ xarakteristikalari bilan chegaralangan bir bog‘lamli sohani belgilaymiz, bu yerda $A_1(1;0)$, $A_2(1;h)$, $B_1(0;0)$, $B_2(0;h)$, $C\left(\frac{1}{2};-\frac{1}{2}\right)$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$
\Omega^+=\Omega\cap(y>0),\ \Omega^-=\Omega\cap(y<0),
$$

$$
I=\{x:0<x<1\},\quad I_1=\left\{x:\frac{1}{2}<x<1\right\},\quad I_3=\{y:0<y<h\}.
$$

AT(Ω) masala. (1) tenglamaning $W_0=\{u(x,y):u(x,y)\in C(\overline{\Omega})\cap C^2(\Omega^-),$ $u(x,y)\in AC[0,h]$ для $\forall x\in[0,1],\, u_{xx},\, {}_C D_{0y}^{\alpha}u\in C(\Omega^+),\ y^{1-\alpha}u_y\in C(\Omega^+\cup I),\ u_y\in C(\Omega^-\cup I)\}$ sinfga tegishli,

$$
u(1,y)=\varphi_1(y),\qquad u(0,y)=\varphi_2(y),\ y\in\overline{I}_3, \tag{3}
$$

$$
u(x,y)|_{A_1C}=\psi(x),\ \ x\in\overline{I_1}. \tag{4}
$$

chegaraviy va

$$
\lim_{y\to+0} y^{1-\alpha}u_y(x,y)=\lambda u_y(x,-0),\ \ (x,0)\in A_1B_1 \tag{5}
$$

ulash shartlarini qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimi topilsin, bu yerda $\lambda=const\neq 0$, $\varphi_i(y)$, $\psi(x)$ - berilgan funksiyalar bo‘lib, $\psi(1)=\varphi_1(0)$.

AT(Ω) masala yechimi yagonaligi energiya integral orqali mavjudligi esa integral tenglamalar usuli orqali isbotlanadi.

1-teorema. *Agar quyidagi*

$$
p(0,0)\le 0,\quad \frac{\partial p(x,0)}{\partial x}\le 0;\ \ \lambda q(0)\le 0,\ \lambda\left((x-1)q(x)\right)'\ge 0,
$$

shartlar o‘rinli bo‘lsa, u holda **AT(Ω)** *masala, bittadan ortiq yechimga ega emas.*

2-teorema. *Agar*

$$\varphi_1(y),\, \varphi_2(y) \in C\left(\overline{I_3}\right) \cap C^1\left(I_3\right), \quad \psi(x) \in C^1\left(\overline{I_1}\right) \cap C^3\left(I_1\right);$$

$$p(x,y) \in C\left(\overline{\Omega}^+\right) \cap C^1\left(\Omega^+\right),\; q(x+y) \in C\left(\overline{\Omega}^-\right) \cap C^1\left(\Omega^-\right);$$

shartlar o'rinli bo'lsa, u holda **AT(Ω)** *masalaning yechimi mavjud.*

Birinchi paragrafning ikkinchi qismida

$$0 = \begin{cases} u_{xx} - {}_C D_{0y}^{\alpha} u + \sum\limits_{k=1}^{n} p_k(x,y) D_{x1}^{-\beta_k} u(x,0), & y > 0 \\ u_{xx} - u_{yy} + \sum\limits_{k=1}^{n} q_k(x,y) D_{\xi 1}^{-\gamma_k} u(\xi,0), & y < 0 \end{cases} \tag{6}$$

tenglama qaraladi, bu yerda

$$D_{ax}^{-\beta_k} f(x) = \frac{1}{\Gamma(\beta_k)} \int\limits_a^x (x-t)^{\beta_k - 1} f(t)dt, \quad k = \overline{1,n}$$

Rimann-Liuvill integral operatori bo'lib, $\xi = x + y$, $\alpha,\, \beta_k,\, \gamma_k = const$,
$0 < \alpha,\, \beta_k,\, \gamma_k < 1$ $(k = \overline{1,n})$ va $p_k(x,y)$, $q_k(x,y)$ $(k = \overline{1,n})$ - berilgan funksiyalar.

Ω sohada quyidagi nolokal masala qaraymiz.

NL(Ω) masala. (6) tenglamaning $W = \{u(x,y) : u(x,y) \in C(\overline{\Omega}) \cap C^2(\Omega^-)$, $u(x,y) \in AC[0,h]$ для $\forall x \in [0,1], u_{xx}, {}_C D_{0y}^{\alpha} u \in C(\Omega^+),\; y^{1-\alpha} u_y \in C(\Omega^+ \cup I)$, $u_x, u_y \in C(\Omega^- \cup I)\}$ sinfga tegishli bo'lgan, (3) va

$$\frac{d}{dx} u\left(\theta(x)\right) = a_1(x) u_y(x,-0) + a_2(x) u_x(x,-0) + a_3(x) u(x,0) + a_4(x),\; x \in I_1,$$

nolokal chegaraviy shartlarni hamda quyidagi

$$\lim_{y \to +0} y^{1-\alpha} u_y(x,y) = \lambda_1(x) u_y(x,-0) + \lambda_2(x) u_x(x,-0) +$$

$$+\lambda_3(x) \int\limits_x^1 r(t) u(t,0) dt + \lambda_4(x),\; 0 < x < 1 .$$

integral ulash shartni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimini toping, bu yerda $\theta(x) = \left(\frac{x+1}{2}, \frac{x-1}{2}\right)$, $0 < \alpha,\, \beta_k,\, \gamma_k < 1$ va $a_j(x)$, $\lambda_j(x)$ $(j = 1,2,3,4)$ - berilgan funksiyalar bo'lib, $\sum\limits_{j=1}^{3} a_j^2(x) \neq 0$, $\sum\limits_{j=1}^{3} \lambda_j^2(x) \neq 0$.

3-teorema. *Agar* $2a_1(x) - 1 \neq 0$ *bo'lib, quyidagi*

$$\left(\frac{\lambda_3(x)}{r(x)}\right)' \geq 0,\; p_k'(x,0) \leq 0\;\; \forall x \in (0,1),\; \frac{\lambda_1(0) q_{1k}(0)}{2a_1(0) - 1} \geq 0,\; p_k(0,0) \leq 0,\; \frac{\lambda_3(0)}{r(0)} \geq 0;$$

$$\left(\frac{q_{1k}(x)\lambda_1(x)}{2a_1(x)-1}\right)' \geq 0,\ \frac{a_3(x)\lambda_1(x)}{2a_1(x)-1} \leq 0,\ \left(\frac{(1-2a_2(x))\lambda_1(x)}{2a_1(x)-1}+\lambda_2(x)\right)' \leq 0\ \ \forall x\in(0,1).$$

tengsizliklar o'rinli bo'lsa, u holda **NL(**Ω**)** *masala bittadan ortiq yechimga ega emas.*

4-teorema. *Agar* $2a_1(x)-1\neq 0$ *bo'lib,*

$$p_k(x,y)\in C\left(\overline{\Omega}^+\right)\cap C^1\left(\Omega^+\right),\ q_k(x,y)\in C\left(\overline{\Omega}^-\right)\cap C^1\left(\Omega^-\right),\ k=1,2,\dots n;$$

$$\varphi_i(y)\in C\left(\overline{I_3}\right)\cap C^1\left(I_3\right),\ (i=1,2);\ a_j(x),\lambda_j(x)\in C^1\left(\overline{I_1}\right)\cap C^2\left(I_1\right),\ (j=\overline{1,4})$$

shartlar o'rinli bo'lsa, u holda **NL(**Ω**)** *masalaning yechimi mavjud .*

1-izoh. *Agar* $a_1(x)=\dfrac{1}{2}\ \ \forall x\in[0,1]$ *bo'lsa, u holda* **NL(**Ω**)** *masala ekvivalent ravishda ikkinchi tur Volterra integral tenglamasiga keltiriladi.* **NL(**Ω**)** *masalaninig bir qiymatli echilishi Volterra integral tenglamalar nazariyasiga asoslanib isbotlanadi.*

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida Erdeyi-Kober operatorli yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun Ω sohada nolokal masala qo'yilgan va bu masala yechimi mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

Ω sohada quyidagi

$$0=\begin{cases} u_{xx}-{}_C D_{oy}^{\alpha}u+p(x,y)\left(I_\beta^{\gamma,\delta}u\right)x, & y>0 \\ u_{xx}-u_{yy}+q(\xi,\eta)\left(I_\beta^{\gamma,\delta}u\right)\eta, & y<0 \end{cases} \tag{7}$$

tenglamani qaraymiz, bu yerda ${}_C D_{oy}^{\alpha}$ – Kaputo ma'nosidagi kasr tartibli operatori bo'lib, u (2) formula orqali aniqlaniladi,

$$\left(I_\beta^{\gamma,\delta}u\right)x=\frac{\beta}{\Gamma(\delta)}x^{-\beta(\gamma+\delta)}\int_0^x\frac{t^{\beta(\gamma+1)-1}}{\left(x^\beta-t^\beta\right)^{1-\delta}}u(t,0)dt, \tag{8}$$

esa Erdeyi-Kober integral operatori, $\xi=x+y$, $\eta=x-y$, $0<\alpha,\ \beta,\gamma,\delta<1$, hamda $0<\gamma+\delta<1$.

NLEK masala. (11) tenglamaning W sinfga tegishli bo'lgan, (3) va

$$\frac{d}{dx}u\left(\theta_1(x)\right)=a_1(x)u_y(x,-0)+a_2(x)u_x(x,-0)+a_3(x)u(x,0)+a_4(x),\quad x\in I$$

chegaraviy shartlar hamda quyidagi

$$\lim_{y\to+0}y^{1-\alpha}u_y(x,y)=\lambda_1(x)u_y(x,-0)+\lambda_2(x)u_x(x,-0)+$$

$$+\lambda_3(x)\int_0^x r(t)u(t,0)dt+\lambda_4(x)u(x,0)+\lambda_5(x),\ x\in I \tag{9}$$

integral ulash shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, bu yerda $\theta_1(x)=\left(\frac{x}{2},-\frac{x}{2}\right)$, hamda $a_j(x),\ \lambda_j(x)\ \ (j=\overline{1,4})$ va $\lambda_5(x)$- berilgan funksiyalar bo‘lib, $\sum\limits_{j=1}^{4}\lambda_j^2(x)\neq 0$, $\sum\limits_{k=1}^{3}a_k^2(x)\neq 0$.

Ushbu masalaning bir qiymatli yechilishi nolokal shartda qatnashayotgan koefffetsientlarning qiymatlariga bog‘liq bo‘lib, Fredgolm, Volterra yoki Abel integral tenglamasiga keltirib isbotlanadi. Dastlab, $1+2a_1(x^{1/\beta})\neq 0$ bo‘lgan holda quyidagi yagonalik teoremasi isbotlanadi:

5-teorema. *Agar quyidagi*

$$\frac{\lambda_3(1)}{r(1)}\geq 0,\ A(1)\geq 0,\ \ p(1,0)\leq 0,\ \ B'(x)\geq 0,\ \ C(x)\leq 0\ \ \forall x\in(0,1),$$

$$\left(\frac{A(x)}{x^{\gamma}}\right)'\leq 0,\ \left(\frac{p\left(x^{1/\beta},0\right)}{x^{2\gamma+\delta}}\right)'\geq 0,\ \ \left(x^{1-1/\beta}\,\frac{\lambda_3(x^{1/\beta})}{r(x^{1/\beta})}\right)'\leq 0\ \ \forall x\in(0,1),$$

shartlar o‘rinli bo‘lsa, u holda **NLEK** *–masala bittadan ortiq yechimga ega emas, bu yerda*

$$A(x)=\frac{Q(x)\lambda_1(x^{1/\beta})}{1+2a_1(x^{1/\beta})},\quad B(x)=\frac{1-2a_2(x^{1/\beta})}{1+2a_1(x^{1/\beta})}\lambda_1(x^{1/\beta})+\lambda_2(x^{1/\beta}),$$

$$C(x)=\frac{2a_3(x^{1/\beta})\lambda_1(x^{1/\beta})}{1+2a_1(x^{1/\beta})}+\lambda_4(x^{1/\beta}),\ Q(x)=-\frac{x^{-\gamma-\delta}}{2\Gamma(\beta)}\int\limits_0^{x^{1/\beta}}q\left(\xi,x^{1/\beta}\right)d\xi.$$

Aynan shu holda, qaralayotgan masala yechimining mavjudligi Fredgolm ikkichi tur integral tenglamasiga keltirilib isbotlanadi.

6-teorema. *Agar* $2a_1(x)+1\neq 0$ *va*

$$p(x,y)\in C\left(\overline{\Omega}^{+}\right)\cap C^1\left(\Omega^{+}\right),\ \ q(x,y)\in C\left(\overline{\Omega}^{-}\right)\cap C^1\left(\Omega^{-}\right),$$

$$\varphi_1(y),\varphi_2(y)\in C\left(\overline{I_3}\right)\cap C^1\left(I_3\right),\ \ a_j(x)\in C^1\left(\overline{I}\right)\cap C^2\left(I\right),\ (j=\overline{1,4})$$

shartlar bajarilsa, u holda **NLEK** *masalaning yechimi mavjud.*

2-izoh. *Agar* $a_1(x)=-\frac{1}{2},\ a_2(x)=\frac{1}{2}$ *va* $a_3(x)=0$, *u holda* **NLEK** *masala ekvivalent holda Abel integral tenglamasiga keltiriladi. Bu masalaning bir qiymatli yechimga ega ekanligi Abel integral tenglamasining bir qiymatli yechilishidan kelib chiqadi.*

Birinchi bobning uchinchi paragrafda, ushbu

$$0=\begin{cases}u_{xx}-{}_C D_{oy}^{\alpha}u+p(x,y)\left(I_{\beta}^{\gamma,\delta}u\right)x, & y>0\\ u_{xx}-u_{yy}+q(x,y)\left(I_{\beta}^{\gamma,\delta}u\right)\eta, & y<0\end{cases}\tag{10}$$

ko‘rinishdagi tenglama qaralgan, bu yerda $p(x,y)$, $q(x,y)$-berilgan funksiyalar, ${}_C D_{oy}^{\alpha} u$ va $\left(I_{\beta}^{\gamma,\delta} u\right)x$ lar esa mos ravishda Kaputo va Erdeyi-Kober operatorlari ((2) va (8) ga qarang), $\eta = x - y$, $0 < \alpha,\ \beta,\gamma,\delta < 1$ bo‘lib, $0 < \gamma + \delta < 1$.

Ω^{+} orqali, $y > 0$ da $A_1A_2 = \{(x,y):\ x = 1,\ 0 < y < h\}$, $B_1B_2 = \{(x,y):\ x = 0,\ 0 < y < h\}$, $B_2A_2 = \{(x,y):\ y = h,\ 0 < x < 1\}$ kesmalar bilan chegaralangan to‘g‘ri to‘rtburchakni, $\Omega_1 = \{A_1C_1E\}$ va $\Omega_2 = \{B_1C_2E\}$ lar bilan esa, $y < 0$ da (10) tenglamaning mos ravishda $A_1C_1 : x - y = 1,\ C_1E : x + y = l$ va $EC_2 : x - y = l$, $B_1C_2 : x + y = 0$ xarakteristikalari bilan chegaralangan sohalarni belgilaymiz, bu yerda $A_1(1;0)$, $A_2(1;h)$, $B_1(0;0)$, $B_2(0;h)$, $C_1\left(\frac{l+1}{2};\frac{l-1}{2}\right)$, $C_2\left(\frac{l}{2};\frac{-l}{2}\right)$, $E(l,0)$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $\Omega^* = \Omega^{+} \cup \Omega_1 \cup \Omega_2 \cup (A_1B_1)$, $\Omega^{-} = \Omega_1 \cup \Omega_2$, $I = \{x : 0 < x < 1\}$, $I_1 = \{x : 0 < x < l\}$, $I_{21} = \left\{x : l < x < \frac{l+1}{2}\right\}$, $I_{22} = \left\{x : 0 < x < \frac{l}{2}\right\}$, $I_2 = \{x : l < x < 1\}$, $I_3 = \{y : 0 < y < h\}$.

Ushbu paragrafda (10) tenglama uchun Ω^* sohada Gellerstedt tipidagi lokal va nolokal masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan hamda bu masalalar uchun ham 5- va 6- teoremalarga o‘xshash teoremalar isbotlangan**.**

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi chiziqsiz yuklamaga ega bo‘lgan parabolik-giperbolik tipdagi tenglama uchun lokal va nolokal masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlashga bag‘ishlangan bo‘lib, birinchi paragrafda

$$0 = \begin{cases} u_{xx} - {}_C D_{0y}^{\alpha} u + f_1(x,y;u(x,0)), & y > 0 \\ u_{xx} - u_{yy} + f_2(x,y;u(x,0)), & y < 0 \end{cases} \tag{11}$$

tenglama uchun bitta tip o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan chekli Ω^* sohada Gellerstedta tipidagi lokal va nolokal masala quyilgan va bu masalalar bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

AG₁(Ω^*) masala. (11) tenglamaning $W_1 = \{u(x,y) : u \in C(\overline{\Omega}^*) \cap C^2(\Omega^{-})$, $\forall x \in [0,1]$ uchun $u(x,y) \in AC[0,h]$, $u_{xx}, {}_C D_{0y}^{\alpha} u \in C(\Omega^{+})$, $y^{1-\alpha} u_y \in C(\Omega^{+} \cup I)$, $u_x, u_y \in C(\Omega^{-} \cup I)\}$ sinfga tegishli bo‘lgan (3) va

$$u(x,y)|_{EC_1} = \psi_1(x), \quad l \le x \le \frac{l+1}{2}, \tag{12}$$

$$u(x,y)|_{B_1C_2} = \psi_2(x), \quad 0 \le x \le \frac{l}{2}, \tag{13}$$

chegaraviy hamda (9) integral ulash shartlarini qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimi topilsin, bu yerda $\psi_j(x)$, $(j = 1,2)$ - berilgan funksiyalar bo‘lib.

AG₂(Ω^*) masala. (11) tenglamaning W_1 sinfga tegishli bo‘lgan va A**G₁(Ω^*)** masaladagi (13) shartdan boshqa barcha shartlarini hamda

$$\frac{d}{dx}u\left(\frac{x}{2},\frac{-x}{2}\right)=a_1(x)u_y(x,-0)+a_2(x)u_x(x,-0)+a_3(x)u(x,0)+a_4(x),\ 0<x<1,$$

nolokal shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, bu yerda $a_k(x)$, $\left(k=\overline{1,4}\right)$ - berilgan funksiyalar bo‘lib, $\sum_{k=1}^{3}a_k^2(x)\neq 0$.

A**G1**$(\Omega*)$ va **AG2**$(\Omega*)$ masalalar echimlarining yagonaligi energiya integrali usuli yordamida, mavjudligi esa chiziqsiz integral tenglamaga keltirilib ketma-ket yaqinlashish usuli orqali isbotlanadi.

AG2$(\Omega*)$ masala uchun olingan natijalarni keltiramiz.

Faraz qilaylik, $A_i(x)=\dfrac{(-1)^i\lambda_1(x)}{2(1+2a_1(x))^{2-i}}$ va $K_i(x,t)$ $(i=1,2)$ – berilgan funksiyalar orqali ifodalangan funksiyalar bo‘lib,

$$K_1(x,t)\in C\left([0,l]\times[0,l]\right)\cup C_{x,t}^{2,0}\left((0,l)\times(0,l)\right),$$
$$K_2(x,t)\in C\left([l,1]\times[l,1]\right)\cup C_{x,t}^{2,0}\left((l,1)\times(l,1)\right),$$
$$\left|K_i(x,t)\right|\le K_{0i},\ \left|\Gamma(\alpha)A_i(x)\right|\le\beta_i,\ K_{0i},\beta_i=const>0$$

bo‘lsin.

7-teorema. *Agar* $\varphi_1(y),\varphi_2(y)\in C\left(\overline{I_3}\right)\cap C^1\left(I_3\right)$, $\psi_i(x)\in C\left(\overline{I_{2i}}\right)\cap C^2\left(I_{2i}\right)$,

$$a_i(x)\in C^1\left(\overline{I}\right)\cap C^2\left(I\right),\ \lambda_k(x)\in C^1\left(\overline{I}\right)\cap C^2\left(I\right),\ i=\overline{1,4},k=\overline{1,5},$$
$$f_1(x,y,z)\in C\left(\overline{\Omega}^+\times R\right)\cap C_{x,y,z}^{0,1,0}(\Omega^+\times R),$$
$$f_2(x,y,z)\in C\left(\left(\overline{\Omega}_1\cup\overline{\Omega}_2\right)\times R\right)\cap C_{x,y,z}^{0,1,0}\left((\Omega_1\cup\Omega_2)\times R\right),$$

va $1+2a_1(x)\neq 0$ *bo‘lib, quyidagi* $\left|f_j(x,y,z)\right|\le m_j\cdot|z|,m_j=const>0$

$$\left|f_j(x,y,z_1)-f_j(x,y,z_2)\right|\le L_j\cdot\left|z_1-z_2\right|,\ (x,y)\in\begin{cases}\Omega^+ & npu\ j=1\\ \Omega^- & npu\ j=2,\end{cases}$$

$$\begin{cases}l\left(K_{01}+\dfrac{2l^2}{27}(L_1+\beta_1L_2)\right)<1\\ (1-l)\left(K_{02}+\dfrac{2(1-l)^2}{27}(L_1+\beta_2L_2)\right)<1\end{cases}$$

shartlar o‘rinli bo‘lsa, u holda **AG2**$(\Omega*)$ *masala bir qiymatli yechimga ega, bu yerda* $L_j=const>0$, $(j=1,2)$, $R=(-\infty,+\infty)$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida, ushbu

$$0=\begin{cases}u_{xx}-{}_CD_{oy}^{\alpha}u+f_1(x,y;u(x,0))\\ u_{xx}-u_{yy}+f_2(\xi,\eta;u(\xi,0))\end{cases}\tag{14}$$

tenglama uchun lokal va nolokal masala tadqiq qilingan, bu yerda ${}_C D_{0y}^{\alpha} f$ - α $(0<\alpha<1)$ kasr tartibli Kaputo operatori, $f_1(x,y;u(x,0))$, $f_2(\xi,\eta;u(\xi,0))$ - (14) tenglamaning chiziqli yuklangan hadlari (berilgan funksiyalar), $\xi = x + y$, $\eta = x - y$.

Ω^+ - bir bog‘lamli soha bo‘lib, $y>0$ da ushbu $A_1A_2 = \{(x,y):\ x=1,\ 0<y<h\}$ $B_1B_2 = \{(x,y):\ x=0,\ 0<y<h\}$, $B_2A_2 = \{(x,y):\ y=h,\ 0<x<1\}$ kesmalar bilan Ω^- esa $y<0$ da (14) tenglamaning $A_1C: x-y=1$ va $B_1C: x+y=0$ xarakteristikalar bilan chegaralangan xarakteristik uchburchak, bu yerda $A_1(1;0)$, $A_2(1;h)$, $B_1(0;0)$, $B_2(0;h)$, quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $\Omega = \Omega^+ \cup A_1B_1 \cup \Omega^-$, $\Omega_1 = \{A_1C_1E\}$, $\Omega_2 = \{B_1C_2E\}$, $\Omega_3 = \{C_1EC_2C\}$, $EC_2: x-y=l$ $EC_1: x+y=0$, bu yerda $C_1\left(\frac{l+1}{2};\frac{l-1}{2}\right)$, $C_2\left(\frac{l}{2};\frac{-l}{2}\right)$, $E(l,0)$.

(14) tenglama uchun Ω sohada quyidagi masalar taqiq qilingan.

L-masala. (14) tenglamaning

$$W_2 = \{u(x,y): u \in C(\overline{\Omega}) \cap C^2(\Omega^- \setminus EC_1 \setminus EC_2),$$

$$u(x,y) \in AC[0,h] \text{ для } \forall x \in [0,1],\ u_{xx}, {}_C D_{0y}^{\alpha} u \in C(\Omega^+),\ y^{1-\alpha}u_y \in C(\Omega^+ \cup I),$$

$u_x, u_y \in C(\Omega^- \cup I)\}$ sinfga tegishli va (3), (12),(13) chegaraviy hamda

$$\lim_{y\to+0} y^{1-\alpha}u_y(x,y) = \lambda_1(x)u_y(x,-0) + \lambda_2(x)u_x(x,-0) +$$

$$+\lambda_3(x)\int_x^1 r(t)u(t,0)dt + \lambda_4(x)u(x,0) + \lambda_5(x),\ 0<x<1 \qquad (15)$$

integral ulash shartni qanoatlantiruvchi yechimini toping, bu yerda $\varphi_i(y),\ \psi(x),\ \lambda_k(x)$ -berilgan funksiyalar bo‘lib, $\sum_{k=1}^{4}\lambda_k^2(x) \neq 0$.

NL- masala. (14) tenglamaning W_2 sinfga tegishli va L-masalani (12) va (13) shartlardan boshqa barcha shartlarini hamda

$$\frac{d}{dx}u(\theta_1(x)) = a_1(x)u_y(x,0) + a_2(x)u_x(x,0) + a_3(x)u(x,0) + a_4(x), l<x<1;$$

$$\frac{d}{dx}u(\theta_2(x)) = b_1(x)u_y(x,0) + b_2(x)u_x(x,0) + b_3(x)u(x,0) + b_4(x), 0<x<l;$$

nolokal shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, bu yerda $\theta_1(x)=\left(\frac{x+l}{2},\frac{l-x}{2}\right)$, $\theta_2(x)=\left(\frac{x}{2},-\frac{x}{2}\right)$ va $a_k(x)$, $b_k(x)$- berilgan funksiyalar bo‘lib, $\sum_{k=1}^{3}a_k^2(x)\neq 0,\ \sum_{k=1}^{3}b_k^2(x)\neq 0.$

Quyidagi funksiyani kiritamiz:

$$K(x,t)=\Gamma(\alpha)\left[L(x,t)(\lambda_1(t)+\lambda_2(t))\right]'+\Gamma(\alpha)\lambda_4(t)L(x,t)+$$

$$+\Gamma(\alpha)r(t)\int_0^t L(x,z)\lambda_3(z)dz,$$

bu yerda $L(x,t)=\begin{cases}(x-1)t, \ npu\ \ 0\le t\le x;\\ x(t-1),\ npu\ \ x\le t\le 1.\end{cases}$

Faraz qilaylik, $\lambda_3(x),\lambda_5(x)\in C[0,1]\cap C^1(0,1),\lambda_4(x)\in C[0,1]\cap C^2(0,1)$, $\lambda_1(x),\lambda_2(x)\in C^1[0,1]$ bo‘lsin, u holda $\left|K(x,t)\right|\le k_0=const>0,$ $\left|\Gamma(\alpha)\lambda_1(x)\right|\le\lambda_{01}=const>0$ ga ega bo‘lamiz.

8-teorema. *Agar* $\varphi_1(y),\varphi_2(y)\in C\left(\overline{I_3}\right)\cap C^1\left(I_3\right)$, $\psi_i(x)\in C\left(\overline{I_{2i}}\right)\cap C^2\left(I_{2i}\right)$, $\lambda_1(x),\ \lambda_2(x)\in C^1[0,1]$, $\lambda_3(x),\lambda_5(x)\in C[0,1]\cap C^1(0,1),\ \ \lambda_4(x)\in C[0,1]\cap C^2(0,1)$, $f_1(x,y;z)\in C\left(\overline{\Omega}^+\times R\right)\cap C^{0,1,0}_{x,y,z}\left(\overline{\Omega}^+\times R\right),\ f_2(\xi,\eta;z)\in C(\overline{\Omega}^-\times R)\cap C^{0,1,0}_{x,y,z}\left(\overline{\Omega}^-\times R\right)$ *bo’lib, quyidagi* $\left|f_j(x,y,z)\right|\le m_j\cdot|z|,m_j=const>0$

$$\left|f_j(x,y,z_1)-f_j(x,y,z_2)\right|\le l_j\cdot\left|z_1-z_2\right|,\ (x,y)\in\begin{cases}\Omega^+\ npu\ j=1\\ \Omega^-\ npu\ j=2,\end{cases}$$

$$0<k_0+\frac{1}{4}l_1+l_2\lambda_{01}\frac{l^2+(1-l)^2}{16}<1$$

shartlar o‘rinli bo‘lsa, u holda L-masala bir qiymatli yechimga ega.

Ushbu bobning uchinchi paragrafda, ushbu

$$f(x)=\begin{cases}u_{xx}-{}_C\,D^{\alpha}_{oy}u+p_1\left(x,y;u(x,0)\right),\ \ y>0\\ u_{xx}-u_{yy}+p_2\left(x,y;u(x,0)\right),\ \ \ y<0\end{cases}\qquad(16)$$

tenglama uchun Ω_l sohada birinchi va ikkinchi chegaraviy hamda chiziqsiz ulash shartli 2 ta masala qo‘yilgan va ularning bir qiymatli yechilishi isbotlangan, bu yerda $p_i\left(x,y,z\right)\ (i=1,2)$ – tenglamaning chiziqsiz yuklangan hadlari bo‘lib, uzluksiz funksiyalar.

IP$_1$(Ω) masala. (16) tenglama uchun Ω_l sohada shunday $\{f(x),u(x,y)\}$ funksiyalar juftligi topilsinki, bu funksiyalar quyidagi xossalarga ega bo‘lsin:

i) $f(x)\in C(0,l)\cap L_1(0,l)$;

ii) $u(x,y)\in C(\overline{\Omega}_l)\cap C^2(\Omega_l^-)$, $u(x,y)\in AC[0,h]$ для $\forall x\in[0,l]$,

u_{xx}, ${}_C D_{oy}^{\alpha} u\in C\left(\Omega_l^+\right)$, $y^{1-\alpha}u_y\in C\left(\Omega_l^+\cup I\right)$, $u_x\in C\left(\overline{\Omega}_l^-\setminus I\right)$, $u_y\in C\left(\Omega_l^-\cup \overline{A_1C}\cup \overline{B_1C}\cup I\right)$;

iii) $\{f(x),u(x,y)\}$ funksiyalar jufti $\Omega^+\cup\Omega^-$ sohada (16) tenglamani qanoatlantiradi;

iv) $u(x,y)$ funksiya (3), $u(x,-x)=\psi(x), 0\le x\le \dfrac{l}{2}$ va

$$u_n(x,y)\Big|_{A_1C}=\psi_1(x),\ 0\le x\le\frac{l}{2};\ \ u_n(x,y)\Big|_{B_1C}=\psi_2(x),\ \frac{l}{2}\le x\le l,$$

chegaraviy, hamda

$$\lim_{y\to+0} y^{1-\alpha}u_y(x,y)=\lambda_1(x)u_y(x,-0)+\lambda_2(x)r\left(x,u(x,0)\right)+\lambda_3(x), 0<x<l$$

chiziqsiz ulash shartni qanoatlantiradi, bu yerda $\psi(x)$, $\psi_1(x)$, $\psi_2(x)$ va $\lambda_k(x)$ $(k=\overline{1,3})$ - berilgan funksiyalar bo‘lib, $\sum\limits_{k=1}^{2}\lambda_k^2(x)\ne 0$,

$$\varphi_i(y)\in C[0,h]\cap C^1(0,h)\ (i=1,2),\ \psi_1(x)\in C^1\left[0,\frac{l}{2}\right], \psi_2(x)\in C^1\left[\frac{l}{2},l\right] \tag{17}$$

$$\psi(x)\in C\left(\overline{I_{22}}\right)\cap C^2(I_{22}),\ \lambda_j(x)\in C\left[0,l\right]\cap C^1\left(0,l\right)\ (j=\overline{1,3}), \tag{18}$$

$$\psi_1\left(\frac{l}{2}\right)=\psi_2\left(\frac{l}{2}\right),\ \ \psi_1'\left(\frac{l}{2}\right)=-\psi_2'\left(\frac{l}{2}\right)\ . \tag{19}$$

$p_i(x,y,z)$ $(i=1,2)$, $r(x,z)-$ uzluksiz funksiyalar bo‘lib, z o‘zgaruvchi bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantirsin, ya’ni

$$|\,p_i(x,y,z_1)-p_i(x,y,z_2)\,|\le L_i\,|\,z_1-z_2\,|\ \ (i=1,2), \tag{20}$$

$$|\,r(x,z_1)-r(x,z_2)\,|\le L_3\,|\,z_1-z_2\,|, \tag{21}$$

bu yerda $L_1,L_2,L_3=const>0$.

Faraz qilaylik, $G(x,t)-$ funksiya

$$\begin{cases}\tau''(x)-\Gamma(\alpha)\lambda_1(x)\tau'(x)=0\\ \tau(0)=\tau(l)=0\end{cases}$$

masalaning Grin funksiyasi bo‘lsin, u holda (18) ga ko‘ra

$$|\,\Gamma(\alpha)\lambda_i(x)\,|\le\lambda_{0i},\ |\,G(x,t)\,|\le g_0,\ (i=1,2),$$

ga ega bo‘lamiz, bu yerda $\lambda_{0i},g_0=const>0$.

9-teorema. *Agar* $\left|p_i(x,y,z)\right| \le p_{0i}\left|z\right|\ (i=1,2),\ \left|r(x,z)\right| \le r_0\left|z\right|$ *bo'lib,* (17)-(21) *va* $lL^* g_0\left(1+\lambda^*+\dfrac{l(1+2\lambda^*)}{4}\right)<1$ *shartlar o'rinli bo'lsa, u holda* **IP2(Ω)** *masala bir qiymatli yechimga ega, bu yerda* $L^* = max\{L_1, L_2, L_3\}$, $\lambda^* = max\{\lambda_{01}, \lambda_{02}\}$.

3-izoh (16) *tenglama uchun* Ω *sohaning parabolik qismida ikkinchi chegaraviy shartlar berilgan,* *IP2(*Ω*) masalaga o'xshash masala ham tadqiq* qilingan. A*gar* $p_i(x,y,u(x;0))\ (i=1,2)$ *funksiyalar faqat x o'zgaruvchining funksiyasi bo'lsa, u holda bu masalaning bir qiymatli yechilishi ekvivalent ravishda ikkinchi tur chiziqsiz Volterra integral tenglamasiga keltiriladi.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, turli ko'rinishdagi yuklamaga ega bo'lgan buziladigan parabolik-giperbolik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan. **Uchinchi bobning birinchi paragrafida**, ushbu

$$0=\begin{cases} u_{xx} - {}_C D_{oy}^{\alpha} u + \sum\limits_{k=1}^{n} p_k\left(I_{\beta_{1k}}^{\gamma_{1k},\sigma_{1k}} u\right)x, & y>0 \\ (-y)^m u_{xx} - u_{yy} + \sum\limits_{k=1}^{n} q_k\left(I_{\beta_{2k}}^{\gamma_{2k},\sigma_{2k}} u\right)\eta, & y<0 \end{cases} \qquad (22)$$

tenglama qaralgan, bu yerda ${}_C D_{oy}^{\alpha}$ va $I_{\beta}^{\gamma,\sigma}$ -mos ravishda Kaputo va Erdeyi-Kober operatorlari bo'lib, mos ravishda (2) va (4) formula bilan aniqlanadi, bundan tashqari $m, \alpha, \beta_{jk}, \gamma_{jk}, \sigma_{jk}, p_k, q_k = const,\quad 0<\alpha, \beta_{jk}, \gamma_{jk}, \sigma_{jk}<1,\quad m>0,$

$\delta = \dfrac{m}{2(m+2)},\ \eta = x + (1-2\delta)(-y)^{\frac{1}{1-2\delta}}$ bo'lib, $0<\gamma_{jk}+\sigma_{jk}<1,\ (j=1,2,\ k=\overline{1,n})$.

S -chekli bir bog'lamli soha bo'lib, $y>0$ da $A_1A_2=\{(x,y):\ x=1,\ 0<y<h\}$, $B_1B_2=\{(x,y):\ x=0,\ 0<y<h\}$, $B_2A_2=\{(x,y):\ y=h,\ 0<x<1\}$ kesmalar bilan, $y<0$ da esa (22) tenglamaning $A_1C: x+(1-2\delta)(-y)^{\frac{1}{(1-2\delta)}}=1,\ B_1C: x-(1-2\delta)(-y)^{\frac{1}{1-2\delta}}=0$ xarakteristikalari bilan chegaralangan soha, bu yerda $A_1(1;0), A_2(1;h), B_1(0;0)$, $B_2(0;h)$, $C\left(\dfrac{1}{2}; -\left(\dfrac{m+2}{4}\right)^{1-2\delta}\right)$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $S^+ = S\cap\{y>0\}, S^- = S\cap\{y<0\}$, $I=\{x: 0<x<1\}, I_2=\left\{x: 0<x<\dfrac{1}{2}\right\},\ I_3=\{y: 0<y<h\}$.

Ushbu paragrafda (22) tenglama uchun quyidagi lokal masala yechimining mavjudligi va yagonali isbotlangan:

L(S) masala. (22) tenglamaning S sohadagi,

$$W_5=\{u(x,y): u\in C(\overline{S})\cap C^2(S^-),\, u(x,y)\in AC[0,h] \text{ для } \forall x\in[0,1],$$

$u_{xx},\, {}_C D_{0y}^{\alpha}u\in C(\Omega^+),\ y^{1-\alpha}u_y\in C(S^+\cup I), u_y\in C(S^-\cup I)\}$ sinfga tegishli bo‘lgan,

$$u(x,y)\Big|_{A_1A_2}=\varphi_1(y),\quad u(x,y)\Big|_{B_1B_2}=\varphi_2(y),\ 0\le y\le h,$$

$$u(x,y)\Big|_{B_1C}=\psi(x),\quad x\in I_2.$$

chegaraviy shartlarni va

$$\lim_{y\to+0} y^{1-\alpha}u_y(x,y)=\lambda u_y(x,-0),\quad (x,0)\in A_1B_1$$

